Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

STATISTIKA IDORALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

MATKARIMOVA INTIZOR ATABAYEVNA
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha PhD, dotsent
“Ma’mun universiteti” Nodavlat ta’lim muassasasi,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi
+998905781951
intizor-matkarimova@mail.ru

Annatatsiya: Ushbu maqolada statistika organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va mamlakat taraqqiyotida statistikaning o‘rni tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, statistika idoralari, e-Stat 4.0, ochiq ma’lumotlar portali, sun’iy intellekt, statistika portali, “Raqamli O‘zbekiston - 2030”

Kirish. Bugungi kunda barcha sohalarda raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Ushbu jarayon statistika idoralari faoliyatini ham chetlab o‘tmadi. Statistik ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, tahlil qilish va keng jamoatchilikka yetkazishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zamonaviy davlat boshqaruvining muhim yo‘nalishiga aylandi.

Raqamli transformatsiya statistika tizimining samaradorligini oshirish, ma’lumotlar sifatini yaxshilash va “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, statistika idoralarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning hozirgi holatini o‘rganish va uni takomillashtirish yo‘llarini taklif etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasida e-Stat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimi, ochiq ma’lumotlar portali (data.egov.uz), interaktiv xizmatlar va sun’iy intellektga asoslangan yangi vositalar faol joriy etilmoqda. Statistik ma’lumotlarni iste’molchilarga tez va qulay yetkazishda elektron hisobotlar, shaxsiy kabinetlar, API interfeyslar hamda PDF, XLSX, CSV, JSON, XML formatlari va interaktiv dashbordlardan foydalanilmoqda.

2026 yil 1 yanvardan boshlab esa “Maslahatchi” va “Tahlilchi” kabi sun’iy intellektga asoslangan interaktiv xizmatlar ishga tushirilishi kutilmoqda [1], bu esa hisobot topshirishni osonlashtiradi va ma’lumotlar sifatini oshiradi. Ushbu xizmatlar iste’molchilarning turli toifalari (davlat organlari, tadbirkorlar, ilmiy tadqiqotchilar va fuqarolar) talablarini qondirishga xizmat qiladi. Ma’lumotlarning o‘z vaqtida, shaffof va qulay shaklda taqdim etilishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish, ilmiy tadqiqotlar va jamoatchilik nazoratini takomillashtiradi.

Published: 05.06.2026

Cite this article: Matkarimova Intizor Atabayevna (2026). Statistika idoralarida raqamli texnologiyalardan foydalanish. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/819

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Muhokama. 2026 yil 15 aprel kuni Jahon banki guruhining Vashingtondagi shtab-kvartirasida “Inside Uzbekistan’s Data Systems Transformation: Reforms, Innovation, Impact” mavzusida gibrid formatdagi taqdimot bo‘lib o‘tdi.

Mazkur tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi raisi, BMT Statistika komissiyasi Byurosi raisi o‘rinbosari Behzod Hamraev ishtirok etib, mamlakatimizda statistika tizimini isloh qilish, uni zamonaviy bosqichga olib chiqish hamda ma’lumotlarga asoslangan davlat boshqaruvini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’ruza qildi.Xususan, 2026 yilda mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbiri raqamli yechimlar asosida o‘tkazildi (census.stat.uz portali orqali onlayn ro‘yxatdan o‘tish va planshetlar yordamida uyma-uy yig‘ish). Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2025 yildagi PF-173-sonli “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”[2] farmoni, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 629-son Qarorlarini ta’kidlab o‘tish mumkin [3]. Bu jarayon raqamli yechimlar asosida tashkil etilgani, uning natijalari esa kelgusida sifatli statistik bazani shakllantirish, tanlanma kuzatuvlarni takomillashtirish va aniq ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi.Shu bilan birga, taqdimotda institutsional islohotlarga ham alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, Statistika agentligining Milliy statistika qo‘mitasi sifatida qayta tashkil etilgani [1], Statistika kengashi va Transformatsiya ofisi faoliyati yo‘lga qo‘yilgani, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni kuchaytirishga qaratilgan yondashuvlar haqida ma’lumot berildi.Shuningdek, tadbir doirasida 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan Statistikani rivojlantirish milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari, jumladan, statistikani shakllantirish jarayonlarini takomillashtirish, sifatni ta’minlash, ma’muriy ma’lumotlar integratsiyasi, ochiq ma’lumotlar, foydalanuvchilar bilan muloqotni kuchaytirish va kadrlar salohiyatini oshirish masalalari ham muhokama qilindi.Ushbu taqdimot O‘zbekistonning statistika sohasidagi islohotlari, innovatsion yondashuvlari va amaliy natijalarini xalqaro ekspertlar hamda hamkor tashkilotlar doirasida keng taqdim etish, shuningdek, o‘zaro tajriba almashish uchun muhim muloqot maydoni bo‘lib xizmat qildi [9].

Bugungi kunda barcha sohalarda raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda jumladan, statistika idoralarida raqamli texnologyalaridan qanday

foydalanilmoqda yoki statistik ma’lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazishda, qanday axborot resurslaridan foydalanilib, bu xizmatlar qay tartibda iste’molchilarni talablarini qondiryabdi shu kabi boshqa ma’lumotlar maqolaning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda statistika sohasi raqamli texnologiyalarni faol qamrab olayotgan yo‘nalishlardan biridir. Bunga asosiy sabab — statistik ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash jarayonlarida aniqlik, tezlik va samaradorlikni oshirish zarurati hisoblanadi.Eng birinchi yo‘nalishda ikkita davlat hizmati to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi va yagona interaktiv davlat hizmatlar portali orqali bu hizmatlarni ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.Yana bir o‘zgarish statistik integrallashgan axborot tizim asosida mahsus portal ishga tushirildi.Bundan avvallari ulardan foydalanuvchilar odatda statistika idoralariga tashrif buyurib u joydan ma’lumotlarni uzoq muddat qidirishga sabab bo‘lar edi. Hozirgi kunda bu ma’lumotlar alohida O‘zbekiston Respublikasi Statistika portaliga barcha rasmiy statistik ma’lumotlarni 3 ta til (o‘zbek, rus, ingliz) va 5 ta formatda (jadval, grafik, kartogramma va boshqalar) taqdim etilmoqda. Ilg‘or qidiruv texnologiyalari tufayli kerakli ma’lumotni tez topish imkoniyati yaratildi.Portalning qo‘shimcha afzalligi shundaki, u nafaqat jadval shaklida, balki grafik, gistogramma, kartogramma va solishtirma tahlillar shaklida ham ma’lumot beradi. Bu imkoniyat ilmiy jamoatchilik va tahlilchilar tomonidan keng qo‘llanilmoqda (1-Rasm)

1-Rasm




1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Statistika portali

Bu portalni qo‘shimcha funksiyalaridan ma’lumotlarni jadval shaklidan tashqari, grafik ko‘rinishlarda, kartogramma shaklida va ilmiy hamjamiyat bu

funksiyalardan juda xam ko‘p foydalanyapdi, ikkita ma’lumotni bir biridan munosabatini ko‘rish, solishtirish, davrlar kesimida solishtirish imkoniyatlarini xam yaratadi. (2-Rasm)

2-Rasm



2-rasm.Statistika integrallashgan axborot tizimi (SIAT)

Bu portalning yana bir qulayligi shu portal orqali dasturiy ta’minot ishlab chikaruvchilar, axborort tizimlariga integratsiya orqali ma’lumotlarni olishga xarakat qilishmoqda va barcha yo‘nalishlarda axborot xavfsizligiga juda xam katta e’tibor qaratilyapdi.So‘nggi vaqtlarda davlat idoralari axborot tizimlari yoki ularni veb saytiga axborot xurujlari ko‘p kuzatilyapdi shuni inobatga olgan holda tizimdagi barcha axborort resuraslarni saqlovchi serverlar, undan tashqari ishchi kompyuterlarni to‘liq himoyalash uchun ularni antivirus dasturlari to‘liq o‘rnatilgan.

Bulardan tashqari Prezidentimizning 09.01.2024 yildagi PQ-8-son qarorida[5] Raqamli texnologiyalar vazirligi Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Statistika agentligi va Soliq qo‘mitasi bilan birgalikda 2026-yil 1-yanvarga qadar “tadbirkorlik subyektining shaxsiy kabineti” orqali hisobotlarni shakllantirish va davlat organlariga taqdim etishni nazarda tutuvchi Yagona hisobotlar tizimini joriy qilishi. Bunda “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi Yagona hisobotlar tizimining operatori etib belgilandi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari Statistika hisobotlari, internet jahon axborot tarmog‘i vositasida statistika hisobotini elektron shaklda yig‘ish axborot tizimi e-Stat orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda taqdim etiladi. e-Stat avtomatlashtirilgan axborot tizimida mavjud bo‘lgan statistika

hisobotlarining elektron shaklini (namunasini) O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika ko‘mitasining www.hisobot.stat.uz rasmiy saytidan olishlari mumkin. Bu dasturlar oldin “e-Stat 1.0”, “e-Stat 2.0”, “e-Stat 3.0” deb nomlangan.(3-Rasm)[6]



3-rasm. (“eStat 4.0”) avtomatlashtirilgan axborot tizimi

Xulosa. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi statistika idoralarining faoliyatini tubdan o‘zgartirib, ma’lumotlar to‘plash, qayta ishlash, tahlil qilish va foydalanuvchilarga yetkazish jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida statistika tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, ma’lumotlar sifatini yaxshilash va davlat boshqaruvini ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish darajasiga ko‘tarishga xizmat qilmoqda.

e-Stat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimi, ochiq ma’lumotlar portali (data.egov.uz), Statistika portali, API interfeyslar, shaxsiy kabinetlar hamda PDF, XLSX, CSV, JSON va XML kabi turli formatlarda ma’lumotlar taqdim etish imkoniyatlari statistik axborotni iste’molchilarga (davlat organlari, tadbirkorlar, ilmiy tadqiqotchilar va keng jamoatchilikka) tez, qulay va shaffof shaklda yetkazishni ta’minlamoqda. 2026-yil 1-yanvardan boshlab ishga tushirilishi rejalashtirilgan “Maslahatchi” va “Tahlilchi” sun’iy intellektga asoslangan interaktiv xizmatlari hisobot topshirish jarayonini soddalashtirish va ma’lumotlarning aniqligini oshirishga qaratilgan.

Mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor 2026-yilda o‘tkazilgan Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbiri raqamli yechimlar asosida yuqori darajada tashkil etildi. census.stat.uz portali orqali onlayn ro‘yxatdan o‘tish va planshetlar yordamida uyma-uy yig‘ish jarayonlari ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligini ta’minladi hamda kelgusida sifatli statistik bazani shakllantirish uchun mustahkam asos yaratdi.

Umuman olganda, statistika idoralarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ma’lumotlarning o‘z vaqtida, ishonchli va ochiq taqdim etilishini ta’minlab, iqtisodiy qarorlar qabul qilish, ilmiy tadqiqotlar va jamoatchilik nazoratini takomillashtirishga hissa qo‘shmoqda. Kelgusida sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalari va ma’muriy ma’lumotlarning chuqur integratsiyasini yanada rivojlantirish orqali O‘zbekiston statistika tizimini raqamli iqtisodiyotning yetakchi tarkibiy qismiga aylantirish imkoniyati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya statistika sohasida nafaqat texnologik yangilanish, balki mamlakatning barqaror rivojlanishi va samarali davlat boshqaruvini ta’minlashning strategik omiliga aylanganini ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24 fevral 2025 yildagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PF-27-sonli farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.09.2025 yildagi PF-173-son “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 629-son Qarori
4. 2021 yil 11 avgustda “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-707-son).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 09.01.2024 yildagi PQ-8-son “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik ma’lumotlarni taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da
6. Gulyamom S.S, Ahmedova M.N, Akbarpova M.R. (2014). Elektron xukumat milliy tizimining tatbiq qilinishi va rivojlanish istiqbollari. Toshkent. –79 b.
7. Маткаримова.И.А.(2014).Совершенствование базы экономических статистических информациий (на примере Узбекистана).Молодой учёный №8 (67) июн-1, Россия.

8. https://stat.uz
9. https://www.worldbank.org/en/events/2026/04/07/let-s-talk-data-inside-uzbekistan-s-data-systems-transformation-reforms-innovation

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

YOSHLAR TASHABBUSLARI VA KICHIK BIZNESDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

MAMIROV SHOXRUX XUSNIDDINOVICH
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” fakulteti
RST-77 guruh talabasi
shohruhmamirov785@gmail.com
ZOKIROVA MUNISA JAMOLIDDIN QIZI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o’qituvchisi
munisahusniddinova9@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi global iqtisodiyot tobora innovatsion yondashuvlarga asoslanib bormoqda. Har bir mamlakat o‘zining raqobatbardoshligini ta’minlash uchun yangi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq qilish va eng asosiysi – yosh avlod tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratmoqda.89 Chunki yoshlar g‘oyalari ko‘proq ijodkorlikka asoslanadi, ular yangilikni tezroq qabul qiladi, yangi sharoitlarga tez moslashadi. Kichik biznes esa o‘z navbatida iqtisodiyotning eng harakatchan, tez rivojlanadigan segmenti sifatida, innovatsion yechimlarni tez tatbiq etishi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar tashabbuslari, kichik biznes, innovatsiya, startap, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish: Bugungi global iqtisodiyot tobora innovatsion yondashuvlarga asoslanib bormoqda. Har bir mamlakat o‘zining raqobatbardoshligini ta’minlash uchun yangi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq qilish va eng asosiysi – yosh avlod tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratmoqda. Chunki yoshlar g‘oyalari ko‘proq ijodkorlikka asoslanadi, ular yangilikni tezroq qabul qiladi, yangi sharoitlarga tez moslashadi. Kichik biznes esa o‘z navbatida iqtisodiyotning eng harakatchan, tez rivojlanadigan segmenti sifatida, innovatsion yechimlarni tez tatbiq etishi bilan ajralib turadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash va kichik biznesning innovatsion salohiyatini kuchaytirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, 2025-yilning boshida mamlakatda 1,2 milliondan ortiq kichik biznes subyektlari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ular mamlakat YAIMining qariyb 45,6 foizini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, “Youth Business” dasturi orqali 350 ming nafar yosh tadbirkorni qo‘llab-quvvatlash va kamida 100 ming yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilmoqda.90 Bu

89 Karimov A. Innovatsion iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.

90 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3777-sonli Qarori. – Toshkent, 2018.